



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARNING MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISH KONSTITUTSIYAVIY VA MEHNAT QONUNCHILIGI ASOSIDA YONDASHUVLAR

Izzatullayeva Aziza Ahmadovna

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
4- bosqich talabasi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: azizaizzatullayeva76@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15099601>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Mart 2025 yil  
Ma'qullandi: 25- Mart 2025 yil  
Nashr qilindi: 28- Mart 2025 yil

### KEY WORDS

*mehnat huquqlari, gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, O'zbekiston qonunchiligi, huquqiy himoya, xalqaro mehnat huquqi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish masalasi ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Xotin-qizlarning mehnat huquqlariga oid konstitutsiyaviy va mehnat qonunchiligida aks etgan asosiy normalar, xalqaro standartlar va ularning milliy qonunchilik bilan uyg'unlashuvi keng yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy global tendensiyalar, muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari muhokama qilinadi.*

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini ta'minlash demokratik jamiyat qurishning ajralmas qismi bo'lib, gender tengligi prinsiplariga asoslangan mehnat munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash va mehnat munosabatlarida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha tub islohotlar olib borilmoqda. Mazkur maqolada ushbu yondashuvlar huquqiy tahlil asosida yoritiladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining vazifalari qayta ko'rib chiqildi, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalari tuzilmasida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo'linmalari, Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etildi, shuningdek, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6094-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2020-y., 06/20/6094/1413-son.

Shu bilan birga, xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlash, tadbirkorlik sohasida samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjud.

**Asosiy qism.** Ko'pgina statistik ma'lumotlarga tayangan holda, uzoq muddat bola parvarishlash bilan band bo'lgan ayollarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash borasidagi ishlar yetarlicha tashkil etilmagan.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlari kuchaytirish, ularning

tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida:

1. Belgilab qo'yilsinki, 2019-yil 1-maydan:

ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlar bekor qilinadi; tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxati tasdiqlanadi;

bola parvarishlash ta'tilining kamida uch oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasi tartibida qo'shimcha bir oy nafaqa to'lanadigan bola parvarishlash ta'tili beriladi;

ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi;

ayollarning pensiya yoshiga to'lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi;

erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.

2. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari ko'magida nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lgan "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari"ni (keyingi o'rinlarda markazlar deb yuritiladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

3. Quyidagilarni markazlarning asosiy vazifalari etib belgilash tavsiya etilsin:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga ko'maklashish;

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish;

ayollarning o'z biznesini tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo'llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'qitishni tashkil etish;

zarur hollarda, faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo'sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko'maklashish;

tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko'rsatish, shu

jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunarlar sotib olishda ko'maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga ko'maklashish;

norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro'yxatdan o'tish, "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish orqali soliqlar va boshqa turdagi imtiyozlardan foydalanishda hamda imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko'rsatish.

markazlar biznes-inkubator shaklida xotin-qizlarning tadbirkorlik, hunarmandchilik faoliyatini, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan tashkil etiladi;

(4-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6094-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2020-y., 06/20/6094/1413-son)

markazlarni saqlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va asosiy vazifalari amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga tijorat banklariga kredit ajratish uchun berilgan resurslardan hisoblangan foizdan kelib tushgan mablag'lar (bank marjasidan tashqari) hamda xalqaro tashkilotlar grantlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

(4-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6094-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2020-y., 06/20/6094/1413-son)

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar tuman (shahar) hokimi va tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan shakllantiriladigan ro'yxat asosida maxsus o'qitish dasturi bo'yicha o'qitiladi;

(4-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi PF-1-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2025-y., 06/25/1/0022-son)

maxsus o'qitish dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan xotin-qizlar orasidan tegishli tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi tavsiyasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 3 yildan kam bo'lmagan muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan 2019-yil 31-dekabrgacha yillik 8 foizli stavkada, 2020-yil 1-yanvardan — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasida, 2021-yil 1-yanvardan esa tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o'rnatiladigan stavkalarda hamda hududlarda aholi bandligini ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni kreditlash tartibi asosida kreditlar ajratiladi;

(4-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi PF-1-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2025-y., 06/25/1/0022-son)

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan AT Xalq banki, "Mikrokreditbank" ATB hamda "Agrobank" ATBga har yili ajratiladigan 100 milliard so'm miqdoridagi resurs mablag'lari kredit mablag'larining manbai bo'lib hisoblanadi. Mazkur resurs mablag'larining kamida 50 foizi qishloq joylarida istiqomat qiluvchi xotin-qizlarning biznesini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

(4-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6094-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,

27.10.2020-y., 06/20/6094/1413-son)

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bir oy muddatda kredit olish uchun tavsiya berish jarayonini adolatli va shaffofligini ta'minlovchi tartibni tasdiqlasin.

Tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o'rnatiladigan stavkalarda beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarning bir qismini kompensatsiya qilish mexanizmi qo'llaniladi.

gender tenglik tushunchasi va turlari;

vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari;

davlat boshqaruvida ishtirok etish, ishga qabul qilish yoki yollash, kredit olish va tadbirkorlik bilan shug'ullanishda gender tenglikni ta'minlashga oid normalar;

gender tenglik buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shuningdek bunday buzilishga olib keladigan qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik;

b) quyidagilarni nazarda tutuvchi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyahasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

maishiy, ish joyidagi va ta'lim muassasalaridagi tazyiq va zo'rvonliklar turlari;

vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari;

tazyiq va zo'rvonliklarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shuningdek, bunday qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik;

sudgacha va sud jarayonida tazyiq va kamsitishlarga duchor bo'lgan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan protsessual kafolatlar.

1. Xotin-qizlarning mehnat huquqlari: huquqiy asoslar va nazariy jihatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi gender tengligini ta'minlash tamoyillarini mustahkamlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Konstitutsiyaning 46-moddasida har qanday gender diskriminatsiyasiga yo'l qo'yilmasligi, barcha fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlanishi belgilangan. Shuningdek, 37-moddada har bir fuqaroning mehnat qilish huquqi, adolatli ish sharoitlari va ishsizlikdan himoya qilinish kafolatlari bayon etilgan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023).

Mehnat kodeksi xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng qamrovli normalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Mehnat kodeksining 77-moddasi homilador ayollar va yosh bolali ayollarga imtiyozlar taqdim etish masalasini tartibga soladi. Mehnat kodeksining 225-moddasida esa xotin-qizlarning og'ir va zararli sharoitlarda ishlashini cheklovchi normalar mavjud (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2023).

Bundan tashqari, ayollar uchun o'z mehnat faoliyatini bemalol olib borish imkoniyatlarini yaratish maqsadida davlat tomonidan bolalar bog'chalari va oilaviy ta'lim muassasalarining rivojlantirilishi ham gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Xalqaro huquqiy me'yorlar va O'zbekiston tajribasi

Xalqaro mehnat huquqi doirasida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan bir qator normativ hujjatlar mavjud. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan 100-sonli konventsiya (1951) erkak va ayollarga teng ish haqi to'lanishini nazarda tutadi. 111-sonli konventsiya (1958) esa ish joyida diskriminatsiyaga barham berish masalasiga qaratilgan. Ushbu xalqaro huquqiy normalar O'zbekiston qonunchiligiga ham integratsiya qilingan.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning

barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiyasi (CEDAW) O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, ushbu konventsiya gender tengligini ta'minlashda muhim huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

### 3. Xotin-qizlarning mehnat huquqlariga ta'sir etuvchi omillar

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini ta'minlashda huquqiy asoslar mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Ulardan ba'zilari:

Ish beruvchilarning homilador ayollarni va yosh bolali onalarni ishga olishdan bosh tortishi. Bu holat gender diskriminatsiyasining yashirin shakllaridan biri hisoblanadi.

Ish haqi tafovutlari. Xotin-qizlar ko'pincha erkaklarnikidan kam maosh oladilar, bu esa iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Rasmiy va norasmiy mehnat bozorida gender nomutanosibliigi. Ayollar norasmiy sektorda ko'proq ishlashga majbur bo'lmoqdalar.

Rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushining pastligi. Ayollar yuqori lavozimlarga kamroq tayinlanadi, bu esa ularning mehnat huquqlarini to'laqonli ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda rahbar lavozimlarida xotin-qizlar ulushi 30% dan oshmaydi, bu esa gender tengligini ta'minlash borasida hali ko'plab ishlar qilinishi lozimligini ko'rsatadi.

### 4. Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish strategiyalari

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha quyidagi strategiyalar amalga oshirilishi lozim:

Mehnat kodeksida gender tengligini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan aniq huquqiy normalarni kiritish;

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini buzilishining oldini olish bo'yicha mustaqil monitoring tizimini yaratish;

Xotin-qizlar uchun reabilitatsiya va malaka oshirish markazlarini tashkil etish;

Gender huquqlari bo'yicha maxsus inspektorlik institutini tashkil etish.

**Xulosa:** Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish demokratik jamiyat qurishning ajralmas qismi bo'lib, mehnat bozorida gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ushbu huquqlarni himoya qilish uchun zaruriy asoslarni yaratgan bo'lsa-da, amaliyotdagi muammolarni hal qilish uchun yanada kompleks yondashuv zarur. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, gender tengligini ta'minlash bo'yicha huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va nazorat tizimini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: "Adolat" nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. (2023). Toshkent: "Adolat" nashriyoti.
3. International Labour Organization. (1951). Equal Remuneration Convention (No. 100).
4. International Labour Organization. (1958). Discrimination (Employment and Occupation) Convention (No. 111).
5. United Nations. (1979). Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW).
6. World Economic Forum. (2023). Global Gender Gap Report.

7. O'zbekiston Respublikasi Gender Tengligi Strategiyasi (2022-2030).
8. O'zbekiston Respublikasi Gender Tengligi Strategiyasi (2022-2030).



INNOVATIVE  
ACADEMY